



TOSHKENT
REPUBLICAN STOCK EXCHANGE

BIRJAVIY TAHLIL

NOYABR | 2024



+998(71)267-08-42



www.uzse.uz



**100170, O'zbekiston, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 107-uy**

Mundarija

BIRJAVIY SAVDOLAR	3
Birja savdolari tahlili	4
Birja savdo maydonlari tahlili	5
"Bond Market" obligatsiyalar bozori	6
"Main Board" bo'yicha Top - 10 aksiya	7
"FoP Board" bozori.....	8
SPO - Qimmatli qog'ozlarni ikkilamchi joylashtirish.....	9
PO - aksiyalarni ommaviy joylashtirish	9
Tarmoqlar tahlili.....	10
Investorlarning asosiy toifalari ulushi инвесторо	11
"Toshkent" RFBda Top - 10 brokerlar	12
Aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi.....	13
Birja kotirovkalash varag'i	14
Savdo narxlari o'zgarishi tahlili.....	15
LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI	16
LTSMda savdolar tahlili.....	17
LTSM savdo maydonlari tahlili	18
"Main Board" bo'yicha Top-5 aksiya	19




TOSHKENT
REPUBLICAN STOCK EXCHANGE

BIRJAVIY SAVDOLAR

Birja savdolari tahlili

2024 - yilning noyabr oyi davomida "Toshkent" RFB savdo maydonlarida birja kotirovkalash varag`iga kiritilgan emitentlarning qimmatli qog`ozlari bilan ikkilamchi ommaviy taklif (SPO)ni hisobga olgan holda jami 14,72 trln. so`mlik 34 665 ta bitim tuzildi. Bitim obyektlari 60 ta emitentning 16,94 mlrd. dona qimmatli qog`ozlari bo`ldi.



(Davomidagi ma'lumotlar SPO hisobisiz tahlil qilingan) Yakunlangan oy davomida eng ko`p bitimlar 20 - noyabrda tuzilgan bo`lib, 1 429 donani; eng kam bitimlar esa 11 - noyabr sanasida tuzilgan bo`lib, ularning soni 578 donani tashkil etdi. Bitimlarning eng katta hajmi 19 - noyabrda qayd etilib, kun davomida jami 12,26 trln. so'mlik bitimlar amalga oshirilgan.

Noyabr oyida tuzilgan bitimlarning o'rtacha kunlik soni 1 113 tani va o'rtacha kunlik hajmi esa 699,02 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oy davomida "Stock Market" aksiyalar bozorining "Main Board" savdo maydonidagi bitimlarning o'rtacha kunlik hajmi 255,16 mln. so'mni tashkil etdi

Hisobot oyida "Stock Market" aksiyalar bozorining "Nego Board" savdo maydonida 39,59 mlrd. so'mlik 5 ta bitim tuzildi. Aksiyalar bozorining "FoP Board" maydonida 14,26 trln. so'mlik 15 ta bitim qayd qilindi. Shuningdek, umumiy hajmi 120,00 mlrd. so'mlik bitta aksiyalarning ommaviy joylashtirish (PO) bitimi tuzildi.

"Bond Market" obligatsiyalar bozorining "Main Board" maydonida umumiy qiymati 1,58 mlrd. so'mlik 232 ta bitim amalga oshirildi. Shuningdek, "Nego Board" maydonida umumiy qiymati 250,27 mlrd. so'mlik 6 ta bitim amalga oshirildi.

Birja savdo maydonlari tahlili


2024 –yilning noyabr oyi yakunida “Stock Market” aksiyalar bozorining G1 - “Main Board” savdo maydonida 56 ta emitentning jami 5,36 mlrd. so'mlik aksiyalari bilan 23 108 ta bitim tuzildi.

Рынок	Торговая площадка	Количество сделок	Количество ценных бумаг	Объем сделок, сум
UZSE STOCK	Main Board	23 108	901 353 164	5 358 294 249,58
	Nego Board	5	1 650 945	39 589 043 649,32
	FoP Board	15	14 829 230 993	14 262 590 531 736,60
UZSE BOND	Main Board	232	6 167	1 583 185 080,72
	Nego Board	6	250 000	250 266 260 120,00
UZSE SPO	SPO	11 298	3 326 031	42 905 799 900,00
UZSE PO	PO	1	1 200 000 000	120 000 000 000,00
ВСЕГО		34 665	16 935 817 300	14 722 293 114 736,20


Aksiyalar bozorining G1 - “Main Board” maydonida bitimlarning eng katta hajmi “O'zRTXB” AJning 331 735 dona /URTS/ oddiy aksiyalari bilan 1,66 mlrd. so'mlik bitim amalga oshirilgan. Nominal qiymati 630,00 so'mni tashkil etuvchi qimmatli qog'ozlarning savdo narxlari diapazoni 2 951,00 - 19 100,00 so'mni tashkil etgan.

T1 – “Nego Board” savdo bo'limida 39,59 mlrd. so'mlik 4 ta emitent bilan 5 ta bitim qayd etildi. Ushbu bo'limda tuzilgan bitimlarning eng katta hajmi “Boshtransloyiha” AJning /BTRL/ qimmatli qog'ozlari bilan bo'lib o'tgan 38,26 mlrd. so'mlik bitimga to'g'ri keldi.

Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar soni, dona



Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar hajmi, mlrd so'm



"Bond Market" obligatsiyalar bozori

Hisobot davri yakuniga ko'ra, "Bond Market" obligatsiyalar bozorida 5 ta qarz instrumentlarining 256 167 ta obligatsiyalar bilan umumiy qiymati 251,85 mlrd. so'mlik 238 ta bitim tuzildi:

- IQMK3V4 (AJ «O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi») – 250,27 mlrd. so'mlik 6 ta bitim;
- IFMT4 (AJ «Imkon finans mikromoliya tashkiloti») – 1,05 mlrd. so'mlik 84 ta bitim;
- BFMT3V2 (MChJ «Biznes finans mikromoliya tashkiloti») – 520,42 mln. so'mlik 139 ta bitim;
- IFMT3 (AJ «Imkon finans mikromoliya tashkiloti») – 7,90 mln. so'mlik 7 ta bitim;
- BFMT3 (MChJ «Biznes finans mikromoliya tashkiloti») – 3,11 mln. so'mlik 2 ta bitim;


Bugungi kunda "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'ida 7 ta emitentning 13 ta qarz qimmatli qog'ozlari mavjud:

№	Emitent	Tikker	Emissiya sanasi va so'ndirilish sanasi	Kupon stavkasi	Bitta obligatsiyaning nominal qiymati (so'm)	Emissiya qilingan obligatsiyalar soni
1	«Asia Alliance Bank» ATB	AABK1	15.07.2019-15.07.2026	MB asosiy stavkasiga +4%	1 000 000,00	45 175
2	«Kapitalbank» ATB	KPB4	13.05.2020-21.05.2027	MB asosiy stavkasiga +5%	1 000 000,00	50 000
3	«Biznes finans mikromoliya tashkiloti» AJ	BFMT3	16.09.2022-30.08.2025	27,00%	1 000 000,00	6 565
		BFMT3V2	09.10.2023-13.09.2026	27,00%	100 000,00	200 000
		BFMT3V3	29.11.2024-20.11.2027	27,00%	100 000,00	300 000
4	«Imkon finans mikromoliya tashkiloti» AJ	IFMT3	10.04.2023-25.03.2026	28,00%	1 000 000,00	6 000
		IFMT4	24.04.2024-09.04.2027	28,00%	1 000 000,00	10 000
5	«Hamkor invest lizing» MChJ	HKIL3	25.04.2023-06.05.2026	18,00%	1 000 000,00	17 500
6	«Hamkorbank» ATB	HMKB1	30.04.2024-30.04.2025	22,00%	1 000 000,00	50 000
7	«O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi»AJ	IQMK3	20.12.2023-17.10.2026	19,00%	1 000 000,00	140 000
		IQMK3V2	17.07.2024-08.07.2027	19,00%	1 000 000,00	150 000
		IQMK5E	16.09.2024-18.09.2029	18,00%	1 000 000,00	50 000
		IQMK3V4	13.11.2024-17.11.2027	19,00%	1 000 000,00	250 000

“Main Board” bo'yicha Top - 10 aksiya


2024 - yil noyabr oyida “Toshkent” RFBning “Stock Market” aksiyalar bozorining G1- “Main Board” maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha Top – 10 aksiyalar.

Bitimlar hajmi bo'yicha Top - 10 aksiya, mln so'm



Hisobot davri davomida bitimlarning eng katta hajmi “O'zRTXB” AJning /URTS/ oddiy aksiyalari bilan qayd etilgan – 1,66 mlrd. so'mlik bitimlar tashkil etadi. Undan keyingi o'rinlarni “Chilonzor buyum savdo kompleksi” AJning /CBSK/ va “UzAuto Motors” AJning /UZMT/ oddiy aksiyalari egallagan, ular bilan mos ravishda 995,16 mln. va 609,31 mln. so'mlik bitimlar tuzilgan. Birinchi o'ntalikni “Olmaliq KMK” AJning /AGMKP/ va “O'zbekinvest” AJning /UZINP/ imtiyozli aksiyalari mos ravishda 91,58 mln. va 87,81 mln.so'm bilan yakunladilar.

Bitimlar soni bo'yicha Top - 10 aksiya, dona



Hisobod davrida eng ko'p bitimlar “O'zRTXB” AJning /URTS/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bo'lib, 2 160 donani qayd etgan. Keyingi o'rinlarni 1 741 va 1 694 ta bitim bilan “Aloqabank” AKning /ALKB/ oddiy va /ALKBP/ imtiyozli aksiyalari egalladi. Birinchi o'ntalikni “O'zbektelekom” AKning /UZTL/ oddiy aksiyalari va “O'zbekneftgaz” AJning /UZNGP/ imtiyozli aksiyalari yakunlab, ular bilan mos ravishda 767 va 726 ta bitimlar tuzilgan.

“FoP Board” bozori

Joriy yilning noyabr oyida “FoP Board” savdo seksiyasida umumiy qiymati 14,26 trln.so'm bo'lgan 15 ta bitim tuzildi, bu umumiy birja bitimlari hajmining 98,56% ni tashkil etadi.

2024 - yilning 15, 19 va 26 - noyabr kunlarida “Stock Market” aksiyalar bozorining “FoP Board” maydonida “Universal Bank” ATBning /UNVB/ qimmatli qog'ozlari bilan 31,99 mlrd. so'mlik 8 ta bitim tuzildi. Bitimlar davomida 6,40 mln. dona oddiy aksiyalar sotildi va aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng bo'lib, bir dona uchun 5 000,00 so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 15 va 20 - noyabr kunlari “FoP Board” savdo maydonida “OCTOBANK” AJning /OCBK/ oddiy aksiyalari bilan bitimlar bo'lib o'tdi. Nominal qiymati 1 000,00 so'm bo'lgan 125,00 mln. dona aksiyalar bilan 125,00 mlrd. so'mlik bitimlar tuzildi.

14 - noyabr kuni “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning /BRBN/ qimmatli qog'ozlari bilan umumiy qiymati 1,60 trln. so'mlik 2 ta bitim bo'lib o'tdi. Bitimlar davomida 13,42 million dona oddiy aksiyalar sotildi va aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng bo'lib, bir dona uchun 119,25 so'mni tashkil etdi.

29 va 27 - noyabr kunlari “GARANT BANK” AJning /OGIN/ va “O'ZTEMIRYO'LKONTEYNER” AJning /UTYK/ mos ravishda 1,10 mlrd. va 1,18 mln. dona qimmatli qog'ozlar bilan umumiy qiymati 110,00 mlrd. so'm va 200,00 mlrd. so'mga teng bo'lgan bitimlar tuzildi. “GARANT BANK” AJning /OGIN/ aksiyalarining savdo narxi nominal qiymatiga teng bo'lib, bir donasi uchun 100,0 so'mni tashkil etdi. “O'ZTEMIRYO'LKONTEYNER” AJning /UTYK/ aksiyalarining nominal qiymati 1 000,0 so'm bo'lib, savdo narxi bir donasi uchun 169 751,19 so'mni tashkil etdi.

Joriy yilning noyabr oyida ushbu bo'lim bo'yicha eng yirik bitim 19-noyabr kuni “Olmaliq KMK” AJning umumiy qiymati 12,20 trln. so'mlik 175,47 million dona /AGMK/ qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirildi. Nominal qiymati 3 914,00 so'm bo'lgan aksiyalarning savdo narxi 69 499,00 so'mni tashkil etdi.

FoP Board maydonining umumiy bitimlar hajmidagi ulushi, trln.so'm




SPO - Qimmatli qog'ozlarni ikkilamchi joylashtirish

2024 - yilning 27 - sentyabrdan 8 - noyabrga qadar fond birjasida "O'zRTXB" AJning /URTS/ aksiyalarini ikkilamchi ommaviy joylashtirish (SPO) bo'lib o'tdi.

"O'zRTXB" AJning SPOsi doirasida 12,60 mingta ariza yig'ilgan. Natijada qanoatlantirilgan murojaatlarning 11 234 tasi jismoniy shaxslarga, 64 tasi yuridik shaxslarga tegishli. 2024-yil 12-noyabrda joylashtirish doirasida aksiyalar bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirildi, jamiyat ustav kapitalining 4,44 foizi 42,91 mlrd. so'mga sotildi. Sotilgan aksiyalarning umumiy soni 3,33 millionga yetdi. Bitimdagi har bir aksiyaning savdo narxi 12 900,00 so'mni, nominal qiymati esa 630,00 so'mni tashkil etdi.

SPO va "O'zRTXB"ning umumiy hajmining solishtiruvi, mlrd.so'm



SPO doirasida tuzilgan bitimlar hajmi "O'zRTXB" AJning noyabr oyidagi umumiy bitimlari hajmining 96,28 foizini (44,57 mlrd.so'mni) tashkil etdi. Shuni ham ta'kidlash joizki, /URTS/ aksiyalari bo'yicha taklif narxini SPO'dan keyingi birinchi savdo narxi bilan taqqoslash natijasida ▲15,00% o'sish qayd etildi.

PO - aksiyalarni ommaviy joylashtirish

2024 - yilning 14 - noyabr sanasida YaDTM brokerlik tizimida "SME ST PO" platformasida "GARANT BANK" AJning /GRBK/ aksiyalarini ommaviy joylashtirish amaliyoti bo'lib o'tdi

Bitim davomida "GARANT BANK" AJning 1,20 mlrd. dona /GRBK/ oddiy aksiyalari bilan 120,00 mlrd. so'mga savdosi amalga oshirildi. Nominal qiymati 1 000,00 so'm bo'lgan bitta aksiyaning savdo narxi 17 000,00 so'mga teng bo'ldi. Har bir aksiyaning savdo bahosi nominal qiymatiga teng bo'lib, bir donasi 100,00 so'mni tashkil etdi.


Tarmoqlar tahlili

(Davomidagi ma'lumotlar SPO hisobi bilan tahlil qilingan)


Bitimlar hajmi bo'yicha tarmoqlar ichida sanoat va bank sohalar qimmatli qog'ozlari yetakchi bo'ldi. Sanoat sohasi emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 12,20 trln. so'mni tashkil etdi, bu umumiy birja aylanmasining 82,84% ni tashkil etdi. Bank sohasiga taalluqli kompaniyalar qimmatli qog'ozlari bilan – 1,99 trln. so'm hamda boshqa sohalar qimmatli qog'ozlari bilan – 297,43 mlrd. so'mlik bitimlar qayd etildi.

2024-yil Noyabr oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar hajmi, %

- Sanoat (82,84%)
- Banklar (13,51%)
- Boshqalar (2,02%)
- Transport (1,62%)
- Energetika (0,01%)
- Qurilish (0,00%)
- Sug'urta (0,00%)
- Aloqa (0,00%)
- Agrosanoat (0,00%)
- Lizing (0,00%)



2024-yil Noyabr oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar soni, dona



Eng ko'p bitimlar boshqa tarmoq sohalarini emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bo'lib, 14 878 ta bitimni tashkil etdi (ulardan 11 298 ta bitim /URTS/ bilan SPO davomida tuzilgan). Bank sohasi qimmatli qog'ozlari bilan 11 258 dona, "Sanoat" sohasiga aloqador emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan esa 2 277 ta bitim tuzildi. Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha eng kam bitimlar soni "Transport" sohasida – 216 dona, va "Lizing" tarmog'ida – 55 donaga teng bo'lgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi.


Investorlarning asosiy toifalari ulushi

2024-yil noyabr oyi oxirida RFB "Toshkent" qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bo'yicha investorlarning asosiy toifalari orasida turli faoliyat turlarini ko'rsatdi.


Qimmatli qog'ozlarni sotib olishda eng katta hajm davlatga tegishli bo'ldi. Ushbu investorning umumiy hajmi 13,80 trln. so'mni yoki umumiy birja hajmining 93,71 foizini tashkil etdi. Boshqa kompaniyalar va jismoniy shaxslar tomonidan 457,48 mlrd. va 268,62 mlrd. so'mlik qimmatli qog'ozlar xarid qilindi, bu umumiy birja xarid hajmining mos ravishda 3,11 va 1,82 foizini tashkil etdi.

Eng kichik hajm XIF larga (Mutual Funds) tegishli – 6,80 mln. so'm.

Noyabr oyida qimmatli qog'ozlarni sotib olish hajmi bo'yicha investorlarning asosiy toifalari



Noyabr oyida qimmatli qog'ozlarni sotish hajmi bo'yicha investorlarning asosiy toifalari




Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha yetakchi - 12,61 trln. so'mlik qimmatli qog'ozlarni sotgan boshqa aksiyadorlik kompaniyalari bo'ldi, bu umumiy sotilgan qimmatli qog'ozlar hajmning 85,65 foizini tashkil etadi. Ulardan kegin banklar va davlat pesh qadamlik qildi, ushbu investorlarning umumiy

sotish hajmi mos ravishda 1,76 trln. so'm va 238,80 mlrd. so'mga teng bo'ldi, yoki 11,94% va 1,62% ga teng. Eng kichik hajm sug'urta kompaniyalariga va QQB ishtirokchilariga (Securities company) tegishli bo'lib, ularning savdo hajmi mos ravishda 69,89 mln. va 39,10 mln. so'mni tashkil etdi.


“Toshkent” RFBda Top - 10 brokerlar

2024 - yilning noyabr yakunlari bo'yicha "Toshkent" RFBga a'zo bo'lgan akkreditatsiyalangan investisiya vositachilari (brokerlari) soni 49 tani tashkil etdi. Ular orasidan quyidagi brokerlar bitimlar soni va savdo hajmi bo'yicha top - 10 talikka kirishdi.

Xaridlar bo'yicha bitimlar soni




Xaridlar bo'yicha bitimlar hajmi, mlrd. so'm




Qimmatli qog'ozlarni sotib olishda vositachilik qilgan brokerlik tashkilotlari orasida bitimlar soni bo'yicha eng ko'p bitimlar "Alkes Research" MChJ orqali amalga oshirilib, 16 163 ta bitimni tashkil etdi. Savdolarining eng katta hajmi "Mulk-Sarmoya Brokerl Uyi" MChJ ishtirokidagi 12,40 trln. so'mlik qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bo'yicha qayd etildi. Bitimlar hajmi bo'yicha top - 10 talikdagi keyingi o'rinlarni tegishli ravishda 1,63 trln. va 355,65 mlrd. so'm bitimlar bilan "Birinchi Banklararo" MChJ va "Finance Invest Broker" MChJ egalladi.

Sotuvlar bo'yicha bitimlar soni



Sotuvlar bo'yicha bitimlar hajmi, mlrd. so'm




Eng ko'p bitimlar "Kapital-Depozit" MChJ brokeri orqali aksiya va obligatsiyalarni sotish bo'yicha tuzilgan bo'lib, 12 897 donani tashkil etgan. Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha top o'ntalikdan keyingi o'rinlarni mos ravishda 10 547 va 4 249 ta bitim bilan "Alkes Research" MChJ va "Portfolio Investments" MChJ egalladi. Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha bitimlar hajmi bo'yicha eng yirik bitim "Mulk-Sarmoya Brokerl Uyi" MChJ orqali amalga oshirildi va 12,40 trln. so'mni tashkil etdi.

Aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi

Hisobot davrida birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvida 230,33 trln. so'mdan 236,92 trln. so'mgacha bo'lgan diapazonda o'zgarishlar qayd etildi.

2024 - yil Noyabr oyi uchun birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi, trln. so'm



Bozor kapitallashuvining eng katta hajmi 29 – noyabrga to'g'ri kelib, 236,92 trln. so'mgacha ko'tarilgan. Bozor kapitallashuvining eng past qiymati 25 - noyabr kuni qayd etilgan bo'lib, ushbu davrda emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 228,59 trln. so'mni tashkil etgan. Shuni ta'kidlash joizki, hisobot davrining yakuniga qadar umumiy bozor kapitallashuvi kichik tebranishlar bilan barqarorlikni ushlab turdi.

2024 – yil 30 – noyabr holatiga ko'ra, birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi 236,92 trln. so'mni tashkil etdi. Oy boshi bilan solishtirganda ushbu ko'rsatkich 2,86 foizga oshgan. Davr oxirida aksiya emitentlari soni 87 donaga yetdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan emitentlar soni 22 taga kamayganiga qaramay, umumiy bozor kapitallashuvi 73,72 trillion so'mga oshgan (45,17%ga).

Birja kotirovkalash varag'i

2024 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birja kotirovkalash varag'ida 90 ta emitentning 134 ta instrumentlari mavjud edi.


Joriy oyda "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'ida delisting jarayoni amalga oshirilmadi.

2024-yil 29 va 13 - noyabr kuni birja kotirovkalash varag'iga mos ravishda "BIZNES FINANS MIKROMOLIYA TOSHKILOTI" MChJning /BFMT3V3/ va "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJning /IQMK3V4/ yangi obligatsiyalari kiritildi. Shuningdek, 5 - noyabr kuni "PORTLATISHSANOAT" AJning oddiy /PLST/ va imtiyozli aksiyalari /PLSTP/ birja kotirovkalash varag'iga kiritildi.


Natijada, 2024 - yil 30 - noyabr yakuniy holatiga ko'ra, birja kotirovkalari varaqasida 91 ta emitentning 138 ta instrumenti mavjud bo'lib, ulardan: 87 tasi aksiyalar, ulardan 3 tasi obligatsiyalar emitentlari; 4 ta emitent - faqat obligatsiya emitentlari hisoblanadi.

Listing toifalari bo'yicha aksiya bozorining birja bitimlari to'g'risidagi ma'lumot

Bitimlar soni, dona



Bitimlar hajmi, mlrd so'm



Savdo narxlari o'zgarishi tahlili

2024 – yil Noyabr oyidagi eng likvidli qimmatli qog'ozlar** narxidagi o'zgarishlar*

N ^o	Emitent nomi Tikker	01.11.2024 yildagi yopilish narxi	30.11.2024 yildagi yopilish narxi	Narxlar o'zgarishi	Yopilish narxi dinamikasi
1	AJ "O'zbekneftgaz" UZNGP	1 599,98	1 780,00	11,25%	
2	ATB "Hamkorbank" HMKB	23,49	24,70	5,15%	
3	AJ "Chilonzor buyum savdo kompleksi" CBSK	2,29	2,39	4,37%	
4	AJ "O'zbektelekom" UZTL	3 996,88	3 999,99	0,08%	
5	AJ "Qizilqumsement" QZSM	1 600,00	1 599,00	-0,06%	
6	AITB "Ipak Yo'li" IPKY	140,00	133,98	-4,30%	
7	ATIB "Ipoteka-bank" IPTB	1,25	1,17	-6,40%	
8	AJ "Aloqabank" ALKB	0,66	0,46	-30,30%	
9	AJ "Aloqabank" ALKBP	5,14	3,08	-40,08%	
10	AJ "O'zRTXB" URTS	3 079,80	3 498,00	13,58%	

* Hisobot oyidagi birinchi bitimning ochilish narxlari va oxirgi bitimning yopilish narxlari taqqoslangan.

**Bitimlar soni bo'yicha top 10ta qimmatli qog'ozlar eng likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida qabul qilingan (7-bet)

Noyabr oyi boshidagi aksiyalarning yopilish narxi bilan 30 – noyabrdagi yopilish narxini solishtirsak, eng ko'p savdo qilingan aksiyalar orasida to'rtta emitent qimmatli qog'ozlari narxi **▲0,08%** dan **▲11,25%** gacha oshgani qayd etildi. Narxlarning sezilarli o'sishini **▲11,25%** bilan "O'zbekneftgaz" AJning /UZNGP/ imtiyozli aksiyalari ko'rsatdi. Shuningdek, "Hamkorbank" ATBning /HMKB/, "Chilonzor buyum savdo kompleksi" AJning /CBSK/ va "O'zbektelekom" AJning /UZTL/ oddiy aksiyalari mos ravishda **▲5,15%**, **▲4,37%** va **▲0,08%** ga oshdi.

Joriy oyda uchta emitentning qimmatli qog'ozlari narxlarida biroz pasayishi kuzatilgan bo'lib, narx tushish darajasi **▼0,06%** - **▼6,40%** oralig'ida bo'ldi. "Aloqabank" AJning oddiy /ALKB/ va imtiyozli /ALKBP/ aksiyalari narxlari (0,66 dan 0,46 ga) va (5,14 dan 3,08 ga) mos ravishda **▼30,30%** va **▼40,08%** ga tushdi.

Ta'kidlash joizki, "O'zRTXB" AJ /URTS/ oddiy aksiyalarining qo'shimcha chiqarilishi munosabati bilan, 1/4 nisbatda aksiyadorlar ixtiyorida bo'lgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda 26 - noyabr kuni ("Toshkent" RFBda qimmatli qog'ozlar savdosi qoidalarining 1638-10-bandi) aksiyalar narxiga o'zgartirishlar kiritildi ($15\ 399,00/5 = 3\ 079,80$ so'm). Shuningdek, 2024 - yil 26 - noyabr holatiga ko'ra tuzatilgan kotirovka narxini 2024 - yilning noyabr yakunidagi yopilish narxlari bilan solishtirganda emitentning aksiya narxi **▲13,58%** ga oshgan.




TOSHKENT
REPUBLICAN STOCK EXCHANGE

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI

LTSMda savdolar tahlili


Ko'rib chiqilayotgan davrda "Toshkent" RFBning listingdan tashqari savdo maydonlarida 75 ta emitentning 118,15 mln. dona qimmatli qog'ozlari bilan jami 71,78 mlrd. so'mlik 4 461 ta bitimlar qayd etildi.

Bitimlar soni, dona



Kundalik hisobda eng ko'p bitimlar 14 – noyabr kuni amalga oshirilgan bo'lib, 323 donani; eng kam esa 26 – noyabr da qayd etilgan bo'lib, 81 dona bitimni tashkil etgan. Noyabr oyida o'rtacha kunlik savdo bitimlari soni 212 ta bitimni tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan oyga nisbatan 23,50%ga kam.

Bitimlar hajmi, mlrd so'm



Bitimlarning eng katta hajmi 20 – noyabr kunida amalga oshirilgan bo'lib, kun davomida 42,40 mlrd. so'mdan ortiq bitimlar amalga oshirilgan, eng kam bitimlar hajmi 25 – noyabr kuni 1,29 mln. so'mni tashkil etgan. Noyabr oyida o'rtacha kunlik savdolar hajmi 3,42 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

LTSM savdo maydonlari tahlili


“SME Stock” aksiyalar bozorining G1 – “Main Board” listingdan tashqari asosiy savdo maydonida 74 ta emitentning aksiyalari bilan jami 68,66 mlrd. so'mlik 4 401 ta bitimlar qayd etildi.

Bozor	Savdo maydoni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi, so'm
SME STOCK	Main Board	4 401	115 201 010	68 656 780 934,22
	Nego Board	60	2 952 308	3 123 940 475,64
JAMI		4 461	118 153 318	71 780 721 409,86


Listingdan tashqari aksiyalar bozorining “Main Board” savdo maydonida bitimlarning eng katta hajmi “PLUM TECHNOLOGIES” AJning umumiy qiymati 42,34 mlrd. so'm bo'lgan 42,34 mln. dona /OPTG/ aksiyalar bilan savdolar amalga oshirildi. Aksiyalarning savdo narxi nominal qiymatiga teng bo'lib 1 000,00 so'mni tashkil etdi.

Qimmatli qog'ozlar “SME Stock” bozorining “Nego Board” maydonida jami 3,12 mlrd.so'mlik 60 ta bitim 2,95 mln.dona aksiyalar bilan tuzildi. Eng yirik bitim “Uzenergoengineering” AJning /OEIG/ 2,95 mln.dona aksiyalari bilan tuzildi. Umumiy qiymati 2,00 mlrd. so'mni tashkil qilgan aksiyalarning savdo narxi - 678,00 so'mni va nominal qiymati – 265,00 so'mni tashkil etdi.

Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar soni, dona




Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar hajmi, mln so'm



“Main Board” bo'yicha Top-5 aksiya


“Toshkent” RFBning “SME Stock” aksiyalar bozorining G1- “Main Board” listingdan tashqari aksiyalar savdo maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha Top-5.

Bitimlar soni bo'yicha Top 5 aksiya, dona



Eng ko'p bitimlar hajmi “Uzsanoateksport” AJning /OSNE/ aksiyalari bilan tuzilgan 672 dona bitimga to'g'ri keldi. Undan keyingi o'rinlarni “KAFOLAT” AJning /OKFS/ va “Uzikkilamchiranglimetall” AJning /UVCM/ oddiy aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 479 va 288 ta bitimlar egalladi. Top-5likni “KAFOLAT” AJning /OKFSP/ imtiyozli va “Baraka” AJning /OBRK/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan 221 ta va 152 ta bitimlar yakunladi.

Bitimlar hajmi bo'yicha Top-5 aksiya, mln. so'm



Bitimlarning eng katta hajmini “PLUM TECHNOLOGIES” AJning /OPTG/ va “New Life Insurance Company” AJning /OLSK/ aksiyalari bilan mos ravishda 42,34 mlrd. va 25,69 mlrd. so'mlik bitimlar tashkil etdi. Undan keyingi o'rinlarni “Matbuot tarqatuvchi” AJning / OMTQ/ va “TOSHKENTVINO KOMBINATI” AJning /OTVK/ aksiyalari bilan mos ravishda 14 va 71 ta tuzilgan 315,89 mln. va 189,31 mln. so'mlik bitimlar egalladi. Top-5likni umumiy qiymati 31,17 mln. so'mga teng bo'lgan “Uzikkilamchiranglimetall” AJning /UVCM/ aksiyalari yakunladi.